

# TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

## BIOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA KREATIV TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**F.B.Murtozayeva**

*Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti  
2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Biologiya fanlarini o'qitishda kreativ topshiriqlardan foydalanish talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishi va fanga bo'lgan qiziqishini orttirishda muhim ahamiyat kasb etishi to'g'risida ma'lumot berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *biologiya, ta'lim, kreativ fikrlash, kreativ topshiriqlar, kreativ kompetentlik, talaba, ijod, tavakkur.*

Biologiya fanlarini o'qitishda tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muommolarni hal etishda kreativlik metodlar samarali hisoblanadi.

Kreativlik (ing. "create"- yaratish, ijodkor) - shaxs yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorgarligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Kreativlik hayotimizning istalgan sohasida namoyon bo'ladi. Bu har bir shaxsning rivojlanishida muhimdir. Usiz yangi mahsulotni yaratish, noyob martaba va orzularingizni haqiqatga aylantirishning iloji yo'q. Har qanday mutaxassis kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun o'quvchilik yillarida poydevor qo'yiladi.

O'rta ta'lim tizimida o'qish faoliyatida bo'lgan o'quvchilar kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari uchun ularda o'quv va tarbiya jarayonlarida an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalar haqida fikr yuritishi, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik talab etiladi.

Kreativ kompetentlik shaxsda mustaqil fikrlash sifatlari namoyon bo'lishining eng asosiy va faol shakli hisoblanadi. Barcha tariflar bir-biridan keskin farq qiliga qaramay, uning ba'zi umumiy jihatlarini ko'rsatish mumkin. Birinchidan, kreativ kompetentlik natijasi sifatida olinadigan mahsulotning sifat jihatidan yangilikka ega bo'lishi; ikkinchidan, ushbu jihatlar kreativ

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

kompetentlikning dastlabki asoslarida mavjud bo'lmaganligi; uchinchi esa, har qanday kreativ kompetentlik faoliyati intellektual izlanishni taqozo etishi bilan belgilanadi.

O'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatini tashkil qilishda ikki o'zaro bog'liq vazifani e'tiborga olish lozim. Ularning birinchisi – o'quvchilar kreativ kompetentlik faoliyatida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, bilim egallashdagi intiluvchanligi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirilishi bilan; ikkinchisi – o'zlashtirilgan bilimlarni ta'limda va amaliy faoliyatda mustaqil qo'llay olishga o'rgatish bilan belgilanadi.

Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir [5].

Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiy lashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan. Xo'sh, ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin? Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim? Tasavvur bilimdan muhim(mi?) Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi [8].

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

Albert Eynshteyn "Tasavvur - bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Inson miyasi o'z ishini "yengillashtirish", "qulaylashtirish" uchun shablon va stereotiplardan foydalanadi.

Kreativ topshiriqlar bolalar diqqatini jamlashda, tasavvurini boyitishda, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda va o'quv jarayonlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, bunda tabiatga oid turlicha noodatiy rasmlarni nomlash, chizish, tasvirlash kabi yoki qiziqarli savollar berish orqali ham tashkil etish mumkin:

Kreativ fikrlashga oid topshiriqlar:

Dunyoda yo`q hayvonni rasmini chizib keling.,

o`zingizni qaysi gulga yoki daraxtga uxshatasiz va nima uchun?

o`zingizni qaysi gulga uxshatsangiz usha gulni rasmini chizib keling.,

Siz gumbak ichidagi qurtsiz, his hayajoningizni yozib keling.,

Siz bir kunlik kapalaksiz, tasavvuringizni yozib keling

Siz suvsiz cho`ldagi hashoratsiz, tassuvringizni ifodalang

Bir hujayrali va ko'p hujayrali hayvolar o`rtasidagi bog`liqlikni toping

O`ylab kureng dunyoda hashoraytlar yuqolib ketsa nima bo`ladi

Eng xavli yirqichlar-sifatida hayvonlarni tasvirlang

Ko`rinib turibdiki yuqorida ko`rsatilgan ko`rinishda o`quvchilarga berilsa, katta qiziqish bilan bajaradilar.

Nickerson kreativ fikrlashni bo`g`uvchi aynan maktab bilan bog`liq bir qator amaliyotlarni mavjudligini e`tirof etadi va ularga quyigalarni kiritadi:

1. vazifani bajarishning yagona to`g`ri usuli, savolga yagona to`g`ri javob bo`lishi kerak, degan g`oyaning mavjudligi;

2. nufuzli insonlarga bo`ysunish va ulardan qo`rqish kerak, degan munosabatni targ`ib etish;

3. har qanday holatda ham dars rejasiga amal qilish;

4. originallik o`ta noyob xislat ekanligiga ishonib qolish;

5. bilim alohida sohalarga bo`linishi haqidagi ishonchni targ`ib etish;

6. qiziquvchanlik va sinchkovlikni ma`qullamaslik;

7. bilim olish va muammoni yechishning qiziqarli mashg., ulot bo`lishiga yo`l qo`ymaslik .

## TA'LIMDA TABIIY FANLARNING FANLARARO INTEGRATSIYASI

Demak, pedagog ustozlar ham o'quvchilarning kreativ fikrlashiga to'sqinlik qilishi mumkin. Buning uchun pedagoglar dars jarayonida yuqorida keltirilgan kreativ fikrlashni bo'g'uvchi omillardan voz kechishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilarini ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan kreativ topshiriqlardan foydalanish o'quv jarayonini hamda darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarasini tashkil etishda va o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini va faoliyatini rivojlantirishda ma'lum maqsadlarga erishishga yordam beradi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularni yanada yaxshi natijalarga erishishga yo'naltiradi.

Shunday qilib, ta'lim jarayonida tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning tafakkurini oshirish orqali dars jarayonlarini tashkil etish hozirgi zamon talablaridan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Elmuratova D., Misirova N. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv qo'llanma.-Guliston, 2021.
2. Amirov Nurbek Islamovich Karshi muhandislik-iqtisodiyot iqtisodiyot instituti "Kasb ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi Pedagoglarda kreativlik sifatlarini rivojlanishning muammolari va samarali yo'llari. Oliy ta'lim jurnal, maqola 2019 y,
3. TDPU huzuridagi tarmoq markazi dotsenti, p.f.n., M.Usmonboeva, katta o'qituvchi A.To'raev "Kreativ pedagogika asoslari" moduli bo'yicha O'quv – uslubiy qo'llanma 2016 yil.
4. Atakulova Manzura Nematovna "Pedagogy the Effectiveness of the Use of Design Technology in the Development of Research Activities of Students in the Process of Biology Education in Higher Education Institutions." Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry 12.3 (2021).